
IJTIMOYIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlar orqali “Bizga kelgan Murojaat” sarlavhasi ostida xabar tarqatildi.

Ushbu xabarda: - “Bu yúldan 17-maktabga, 2-MTMga va Jome Masjidga yuriladigan kúchamiz

Kúshtepa tumani Istiklol mfy shu kúchamizni kúp bora tuman mutasadilarga murojaat kildik natija yúk, partalga xam aytganmiz tumandan kelib mablag yúk deb ketishmokda, Kim bizga Yordam beradi. □” - deya shikoyat qilingan.

Ushbu murojaat tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo’jalik masalalari bo’yicha o’rinbosari B.Qurbonov tomonidan o’rganildi va murojaatchi Mumtoz mahalla fuqarolar yig’ini Mumtoz ko’chasi, 47-uyda yashovchi G’.Raxmatillayevga ichki yo’llarni asfaltlash ishlari tegishli dasturlar asosida kelgusi yillarda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi haqida tushuncha berildi.

Qo’shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-11-24 16:09:52